

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

## ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA AYOL OBRAZINING BADIY TALQINI

**Uljon Boboqulova**

*ToshDO‘TAU 2 bosqich tayanch doktoranti*

[uljonboboqulova8@gmail.com](mailto:uljonboboqulova8@gmail.com)

***Annotatsiya:** Maqolada shoir Abdulla Oripov ijodida ayol obrazi, uning tasnifi va talqini masalasi o‘rganilgan. Ayol obrazini yaratishdagi individuallik, ijodkor mahorati va badiiy-estetik qarashlari tadqiq etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Ayol, ona, xotin-qizlar, momo, kampir, milliy ruh, prototip.*

Ayol yaratilgan ichida eng go‘zal xilqatdir. Shuning uchun ham ayol obrazi ijodkorlar hayotida ilhom manbai hisoblanadi. San’atning barcha turlarida ayol o‘ziga xos tarzda tasvirlanadi. Shu jumladan, adabiyotda ham. Ayniqsa, sharq adabiyotida ayol go‘zallik, nafosat, ibo-hayo timsoli bo‘lish bilan birga donishmandlik sifatlarini o‘zida mujassamlashtirgan ideal obraz sifatida ham ulug‘langan. Hazrat Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida Mehinbonu obrazi ana shunday-adolat va ilm-fan homiysi sifatida ta’riflanadi.

*Mehinbonuki donishparvar erdi,*

*Bilik ahliga shohi sarvar erdi.*[Navoiy.2001.75].

Sharq adabiyotida ayol obrazi yaratilar ekan, mubolag‘a va fantaziya elementlaridan mohirona foydalanilgan. Xususan, Qutb Xorazmiy o‘zining “Xusrav va Shirin” dostonida Shirin siymosini chiroyda tengsiz go‘zal sifatida mubolag‘aviy tarzda quyidagicha tasvirlaydi:

*Uchakka chiqti Shirin ul niqobdin,*

*Netakkim chiqsa kun nogah hijobdin*[Qutb.1986.524].

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida ayol mavzusi poetik ifodasining yorqin namunalarini O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ijodida ko‘rishimiz mumkin. Shoir ayol siymosini yaratishda milliy ruh va umumbashariy qadriyatlardan asosiy mezon sifatida foydalanadi. Ayol obrazini yaratishda ortiqcha mubolag‘a va ta’rif-u tahsinlarga o‘rin bermaydi. Ramz va timsollar orqali turfa ayol obrazlarining go‘zal namunalarini yaratdi. Asarlarida ma’lum xarakter-xususiyatlarga ega bo‘lgan ayollar obrazini quyidagicha tasvirlaydi: mehnatkash va jafokash (“Yuzma yuz” da rangpar singil, “Saodat”); yuksak aql egasi (“Alisherning onasi” she’rida ona); mehribon va g‘amxo‘r (“Samoviy mehmon, yetti donishmand va farrosh kampir qissasi” da farrosh kampir, “Onajon” she’rida ona); jamiyatda faollik va kasbi koriga ko‘ra (“Kotiba xonim”, “Guvalakning sportchi qizlariga”, “Hamshira”); ota-onasiga

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

mehribon farzand (“Qizlarim”), mushtipar (“O‘zbek onasi”); sadoqat va matonat ramzi (“Ayol”); noshukur xotin (“Adi-badi haqida rivoyat”, “Rivoyat”).

Abdulla Oripov she’riyatida ayol kulti quyidagi obrazlarda namoyon bo‘ladi:

- a) **Ona timsoli.** “Onajon”, “Onamga”, “Ona”, “Ona degan nom”, “Onamni sog‘inib”, “Maktub”, “Onamga xat”, “Onamni eslab” she’rlari;
- b) **Xotin-qizlar obrazi-** “Ayol”, “Qizlarim”, “Kamilla”, “O‘zbek ayoli”, “Singil”, “Kelinoyi”, “Habash qiz”;
- c) **Momo va kampir obrazlari-** “Ranjkom”, “Hangoma”, “Momo”, “Oila kundaligi”, “Oila”.

**Ona obrazi.** Barcha onalar jinsi nuqtai nazardan ayol deb ataladi, lekin barcha ayollar ham ona bo‘lavermaydi. Ona dunyodagi eng aziz va mo‘tabar zot. Shu ma’noda ham shoir she’rlarida ona irfoniy ma’no kasb etadi va ulug‘lanadi. Shoirning “Haj daftari” turkumidan o‘rin olgan “Ona” nomli she’ri ana shunday ilohiy mazmunga ega:

*Ka’ba qopqasida turgan ey, posbon,  
Avval onalarning ochgin yo‘llarin.  
Onalar poyiga tiz cho‘k o‘shal on,  
Tavof qil, ko‘zga surt, o‘pgin qo‘llarin.*

Yoxud, “O‘zbek onasi” she’rida ona eng muqaddas sajdagohga qiyos qilinadi:

*Sen o‘zing Ka’bamsan, Baytul muqaddas,*

Vatanni Onaga nisbat berilishi, Onani Ka’baga, Baytul muqaddasga qiyoslanishi baytdagi o‘ziga xos poetik zanjirni yuzaga keltiradi. Bular bir-biri bilan yonma-yon qo‘yilgandagina mukammallik kasb etishi, bir-birisiz mujassam bo‘la olmasligi A.Oripov ijodida markaziy o‘rinda turadi. “Jannat” she’ri esa hadis-i sharif asosida yozilgan bo‘lib, onaga irfoniy qarashning badiiy ifodasidir.

*Mayliga menga ham orom tilagin,  
Onajon, sog‘inchim sen o‘zing rosti.  
Mo‘ysafid o‘g‘lingning boshin silagin,  
Menga jannat erur oyog‘ing osti [Oripov.2021.215].*

Umuman olganda, ona obrazi Abdulla Oripov she’riyatida alohida o‘rin tutuvchi badiiy hodisadir. Bu mavzudagi turkum she’rlarida shoir ona obrazini ilohiy tuyg‘u va mukammal badiiyat uyg‘unligida suvratlantiradi.

**Xotin-qizlar obrazi.** Xassos shoir Abdulla Oripov ijodida xotin-qizlar obrazi ham salmoqli o‘ringa ega. Xotin obrazi ko‘proq badiiy to‘qima obrazlar hisoblansa, qizlar obrazi esa ko‘pincha mavjud prototipiga ega obraz sanaladi. “Olam shu qadar keng, shu qadar boy, hayot shu qdar rang-barangki, she’r uchun mavzu hamisha

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

topiladi. Biroq bu she’rlar uchun sabab va materialni borliqning o‘zi berishi kerak”,- deb aytganida naqadar haqli edi nemis faylasufi Gyote [Ekkerman.2016]. Abdulla Oripovning chet el safari chog‘ida yozilgan “Habash qiz”, “Kamilla”, “Jamayka” nomli she’rlari, “Ko‘ngil mulki”, “Singlim”, “Vatan mehri”, “Saodat” kabi bir qancha bag‘ishlov-she’rlari ayni tabiat bergan real voqelikning ilhom samarasidir.

*Loyingiz barobar qorgandir Xalloq,*

*Ayni ilhom chog‘i ijod etgandir.*

*Anavi habashning nusxasi biroq,*

Diniy-mifologik qarashlar asosida qurilgan mazkur she’r yaxshi kayfiyat baxsh etishi bilan birga kishini chuqur mulohazaga ham chorlaydi. Irqi, dini har xil bo‘lsa ham, insoniyatning yaralish asosi-ildizi bir ekanligiga ishora beradi. Chuqur falsafiy mushohada yuritishga undaydi. Yoki jiyani Adiba Davlatovaga bag‘ishlab yozilgan “Ko‘ngil mulki” she’rida bu dunyoda mavjud barcha yaratilgan mukammal emasligi, har birida ma’lum kamchilik va nuqsonlar mavjudligini ilmiy asoslarda ifodalaydi:

*She’ringda kentik bor, deding Adiba,*

*O‘zing ayt, dunyoda bitin nima bor.*

*“Kalta minor” kabi ko‘rkam obida,*

*Kentik orzulardan emasmi yodgor [Oripov.2021.248].*

Qizlar obrazini aks ettirishda asos bo‘lgan voqelik shoirning tafakkur dunyosi, hissiy olami prizmasidan o‘tib, ijodkorning estetik ideali, dunyoqarashi, ruhiy olami, g‘oyaviy yo‘nalishlari va ijodiy tajribasi bilan qorishiq holat kasb etadi. Voqelik mana shu asosda qayta tug‘iladi va obrazli tasvirga ega bo‘ladi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Abdulla Oripov ayol obrazini yaratishda faqat maqtov-olqishlarga berilmaydi. Shoir ijodida ayol-xotin obrazi ham borki, ko‘proq salbiy xususiyatlarni o‘zida aks ettiradi. Antiteza badiiy tasvir vositasi asosida qurilgan “Adi-badi haqida rivoyat” she’ri ayni fikrning badiiy isbotidir. She’rda bir-birini fikrini hurmat qilmagan, o‘zinikini ma’qullab umr o‘tkazayotgan er-u xotinning foje hayoti aks ettirilgan bo‘lsa, “Rivoyat” she’rida esa “oltin baliq” qolipi qayta jonlanadi:

*Xullas, barcha orzusiga erishdi xotin,*

*El ichida “boyvuchcha” deb chiqardi otin. [Oripov.2021.194]*

Uzoq vaqt to‘qchilikda yashagan xotin, erining qo‘li sal kalta kelganida esa: “Er turardi nochor holda boshini egib, Xotin derdi: kun ko‘rmadim men senga tegib”, -deya noshukr va qanoatsizlik qiladi. Shoir ijodida bunday illatlarni ifodalanihi tanqidiy tafakkur mahsuli bo‘lib, she’rning badiiy qimmatini yanada oshiradi.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

**Momo va kampir obrazlari.** Shoir Abdulla Oripov ijodida shunday arxip obrazlar borki, ular nafaqat millat balki turkiy xalqlarning ma’naviy qiyofasining bir qismi sifatida qimmatlidir. Ana shunday arxiptlardan momo va kampir obrazlaridir. Momo obrazi ijobiy xarakter kasb etsa, kampir obrazi esa ham ijobiy, ham salbiy ma’no ottenkalariga ega murakkab obraz sanaladi. Momo obrazining genezisi Qur’oni Karim va Odam Ato va Momo Havoning yaratilishi bilan bog‘liq diniy hodisalarga borib taqaladi. Bu obraz mifologiyada turli talqinlarda uchraydi. Xususan, shoir Abdulla Oripovning Odam Ato va Momo Havoning jannatdan quvilishidan keyingi voqealar aks etgan mifologik xarakterdagi “Odam va shayton qissasi” she’rida butun insoniyatga daxldor bo‘lgan ilk Momo obrazi aks ettirilgan. Momo xarakteridagi ko‘ngilchanlik, itoatgo‘ylik, mehr (hatto shayton bolasiga ham) kabi tuyg‘ular milliy ruhoniyyatning dastlabki ko‘rinishi sifatida akslanadi. Shoirning “Millat” nomli she’rida ana shu mulohazalar hayotiy haqiqat asosida yuzaga keladi:

*Sayyohlikning yo‘rig‘i shul: uchrashib qoldim*

*Koreyalik bir nuroniy onaxon bilan.*

*U, albatta, bilmas edi o‘zbekligimni.*

*Bir zum qisiq ko‘zlarini tikkancha kampir,*

*Jilmaydi-yu shama qildi aftimga qarab:*

*–O‘z tilingni unutibsan, yaxshimas, bolam.*

*Segak tortdim “bolam” degan uning so‘zidan,*

*Ona bo‘lmay kim u menga? Ona-ku axir.*

*O‘sha-o‘sha mushtipar-u mehribon, mushfiq [Oripov.2013.89].*

She’rning xususiy mazmuniga e’tibor bersak, notanish yigitni tashqi ko‘rinishiga qarab koreys deb o‘ylagan kampir o‘z tilini unutgan gumon qilib, undan ranjydi. Dilidagini tiliga ham ko‘chiradi: notanish bolaga tilini unutish yaxshi emasligi to‘g‘risida tanbeh beradi. Buni qarangki, o‘shanda ham kampir notanish yigitga “bolam” deya murojaat qiladi. Endi o‘ylab ko‘ring-chi, haqiqatdan ham u ona bo‘lmay kim? Qolaversa, millat tilini muqaddas qadriyat deb bilgan, uning sha’ni, obro‘si uchun o‘zini ham mas’ul hisoblagan millat jonkuyari. Momo va kampir obrazlari millat qiyofasining ko‘zgusi sifatida tarannum etilishi esa ko‘p jihatdan shoirning mana shu hayotiy va estetik tamoyillari, ideallaridan kelib chiqib shakllandi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asrlar to‘plami.17-jild.T.: 2001.-B.75
2. Ekkerman Y.P. Gyote bilan gurunglar.- T.: O‘zbekiston, 2016.-B. 141.
3. Oripov A.Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild.– Toshkent:Adabiyot va san’at, 2000. -B. 189.
4. Oripov A. Savob. – Toshkent: Manaviyat,1997.-B.82

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

5. Oripov A. Tanlangan asarlar. Ettinchi jild. -T.: G‘.G‘ulom, 2013.-B. 89.
6. Qutb Xorazmiy. Xusrav va Shirin. Adabiyot va san'at-T.:1986.-B. 524.